



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

20 440

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

19 590

Yangi tashkil etilgan korxonalar

1 951

(2020- yil yanvar-iyun oylarida)


Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshiraoladigan, majburiyatlarni bajaraoladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

yillar kesimida soni, birlikda

(1- iyul holatiga ko'ra)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
tijorat korxonalarini soni, birlikda
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)**




**Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning
tumanlar bo'yicha soni
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, Nukus shahri (29,6 %), To'rtko'l (10,4 %), Beruniy (8,2 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iroq (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,8 %), Taxiatosh (3,2 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,7 %), Qanliko'l (2,6 %), Shumanay hamda Mo'ynoq (2,5 % dan), Taxtako'pir (2,1 %), Bo'zatov (1,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyul holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
tijorat korxonalarini soni, birlikda**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar- iyun oylarida, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil yanvar- iyun oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-iyun oylarida 1 951 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 330 ta, xususiy korxonalar - 178 ta, oilaviy korxonalar - 314 ta, muassasalar - 42 ta va boshqalar - 87 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyul holatigako'ra 1 364 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 428 taga yoki 45,7 % oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 296 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 382 taga yoki 41,8% oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 314 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56 taga yoki 21,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy capital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 162 tani tashkil etib, ulardan 158 tasi yoki 97,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 18,2 % oshganligin ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- iyun oylarida 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)


2019- y.




2020- y.



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	66	68	93	135	158
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon vabaliq xo'jaligi	12	12	23	34	38
Sanoat	40	39	47	62	83
Qurilish	3	3	4	4	5
Savdo	7	9	13	22	19
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	1	3	4
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	2	5	5


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	158	91	67
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	24	19	6
Nukus	10	8	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	6	4	2
Nukus sh.	35	17	17


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 35 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 22,1 %), Mo'ynoq 24 ta (15,2 %), Qorao'zak va Taxiatosh 11 tadan (7,0 %) hamda Beruniy va Nukus tumanlarida 10 tadan (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, To'rtko'l va Xo'jayli 4 tadan (2,5 %) hamda Amudaryo, Chimboy va Shumanay 5 tadan (3,2 %) tumanlari ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning Nukus shahrida (21,5%), To'rtko'l (10,4 %), Beruniy (6,6 %), Ellikqal'a (6,0 %), Nukus (6,0 %), Amudaryo (6,0 %), Qo'ng'irot (5,6 %), Xo'jayli (5,4 %), Taxtako'pir (4,3 %), Taxiatosh (4,1 %), Mo'ynoq (4,0 %), Bo'zatov (4,0 %), Chimboy (3,4 %), Shumanay (3,3 %), Qorao'zak (3,3 %), Qanliko'l (3,2 %), Kegeyli (2,9 %) tumanlar ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yichasoni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (18,5%), Amudaryo (12,1 %), Nukus sh. (10,9%), To'rtko'l (10,5 %), Qanliko'l (9,6 %), Beruniy (8,6 %), Taxiatosh (5,7%), Ellikqal'a (5,1 %), Xo'jayli (4,1 %), Nukus (3,5 %), Qorao'zak (3,5%), Qo'ng'irot (2,5 %), Mo'ynoq (2,0 %), Shumanay (1,6 %), Chimboy, Kegeyli va Bo'zatov tumanlarida (0,6 %) ulushiga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:61 224-92-09**